Наличие в системе корневого канала боковых ответвлений (93% зубов) и ответвлений апикальной дельты (96% зубов),которые находятся в нижней трети корня; у моляров определяются дополнительные канальцы в области бифуркации, что ставит под сомнение возможность тщательного удаления тканей пульпы [3,22]. Выделяют следующие ошибки, обусловленные сложной анатомией корневых каналов: в 40% нижние резцы имеют два корневых канала, в 58% второй премоляр верхней челюсти имеет два корневых канала, в 31% первый премоляр нижней челюсти имеет два корневых канала, в 20% фронтальные зубы имеют боковые ответвления от основного корневого канала [4]. Другая важная проблема – наличие микроорганизмов в корневой системе. Микроорганизмы, вызывающие эндодонтические заболевания и на 90% состоящие из облигатных анаэробов, инфицируют не только мягкие ткани пульпы, но и пристеночный предентин корневого канала на глубину до 1,2 мм [16]. По данным статистики, основная причина неэффективности эндодонтического лечения – недостаточное уничтожение бактерий в системе корневых каналов (76%), неправильное определение показаний к лечению (22%), а также отказ от проведения рентгенографии [23]. Удаление патогенной микрофлоры из эндодонта – этиологический вектор, который определяет клинический курс лечения болезни и плана обработки. Дезинфекция корневого канала крайне важна для регенерации перирадикулярных тканей. Одно из необходимых условий – тщательное изучение состояния периапикальных тканей во всей полости рта. Отсутствие реакции на температурный раздражитель, неподвижность зуба указывает, как правило, на эндодонтопатологию, что требует проведения терапии [25]. Надлежащая эндодонтическая обработка канала может устранить пародонтопатологию эндодонтической этиологии, даже если они развивались длительное времяю.

Эндодонтические ошибки, связанные с недостаточной инструментальной обработкой, удалением микробной инфекции или обтурацией корневых каналов, часто вызваны небрежностью работы врача, неправильным пониманием концепции лечения, незнанием анатомии корневых каналов. Корень зуба недоступен визуальному контролю, каналы бывают различными по своему анатомическому строению, довольно часто встречаются индивидуальные особенности их строения. С этим и связаны трудности их обработки и пломбирования [15]. Другой очень важной проблемой является качество пломбирования канала, от которого зависит успех эндодонтического лечения. Исследования показали, что ошибками эндодонтического лечения, т.е. некачественного заполнения корневого канала, в анализируемом материале явилось неполное пломбирование канала, когда корневая пломба занимала 2/3 или ½ канала. Корневая пломба должна плотно заполнять канал и располагаться на уровне физиологической верхушки корня, на расстоянии 1-1,5 мм от анатомической. В 23% наблюдений пломбировочный материал покрывал только стенки канала, оставляя центральную и верхушечную части канала пустыми; в отдельных зубах пломбировочная масса закрывала только устьевую часть

канала; в 19% корневая пломба на разных уровнях канала прерывалась; в 15% случаев имело место избыточное выведение материала за верхушечное отверстие, при этом корневой канал был обтурирован некачественно. В настоящее время общепризнано, что выведение пломбировочного материала за верхушку, даже при деструктивных формах периодонта, нецелесообразно [13]. Нередко зубы с непломбированными или запломбированными каналами имеют атологические изменения в области верхушки корня с минимальными или обширными рентгенологическими проявлениями.

Окончательный успех или неудача в эндодонтическом лечении должны обязательно оцениваться с использованием рентгенологического контроля [2,17,20,24]. Одним из важных моментов профилактики осложнений при эндодонтическом лечении является органосохраняющая функция зуба и предупреждение развития одонтогенных воспалительных процессов челюстно-лицевой области. Одним из основополагающих условий эффективности эндодонтического консервативного вмешательства является знание и понимание анатомии системы корневых каналов. Знание строения зуба с трехмерной оценкой внутренней его анатомии – стандарт качества эндодонтического лечения.

## Заключение

Приведенные данные литературы свидетельствуют, , что на прогноз эндодонтического лечения оказывают влияние внутри- и внекорневые факторы.Таким образом, анализ данных литературы свидетельствует об актуальности эндодонтического лечения на всех его этапах. Важными моментами успешности эндодонтического лечения являются знание анатомо-топографических особенностей строения полости зуба и системы корневых каналов, соблюдение правил медикаментозной и инструментальной обработки корневого канала, правильный выбор пломбировочного материала для заполнения канала и динамическое наблюдение с использованием современных визуальных методов обследования. Существующие проблемы при проведении эндодонтического лечения требуют разработки алгоритма профилактики осложнений на этапах эндодонтического лечения. Результаты наших наблюдений свидетельствуют о перспективности изучения данной проблемы путем проведения клиникостатистического анализа медицинской документации для становления причин, способствующих различным осложнениям, и необходимости разработки алгоритма профилактики осложнений.

## Литература

1. Аксамит Л.А., Бабич Т.Д., Цветкова А.А. Особенности лечения пульпита зубов с проблемными каналами // Клин. стоматол. – 2015.– №3. – С. 4-6.
2. Бер К. Canal Leader-2000:эндодонтический угловой наконечник // Клин.стоматол. – 1997. – №2. – С. 14-19.

3. Биберман Я.М., Наумова И.П. Анализ заболеваемости с временной утратой трудоспособности по данным хирургического отделения стоматологической поликлиники //Стоматология. – 1979. – №2. – С. 65-69.
4. Бир Р., Бауманн М.А., Ким С.Эндодонтология/ Пер. с англ. проф. Т.Ф.Виноградовой. – М., 2004.
5. Боровский Е.В. Клиническая эндодонтия. – М.: АО Стоматология, 2001. – 176 с.
6. Боровский Е.В. Проблемы эндодонтии по данным анкетирования // Клин. стоматол. –
1998. – №1. – С. 6-9.
7. Боровский Е.В. Проблемыэндодонтического лечения // Клин стоматол. – 1997. – №1. – С. 5-8.
8. Боровский Е.В., Жохова Н.С.Эндодонтическое лечение: Пособие для врачей. –М.: Медицина, 1997. – С. 3-5.
9. Боровский Е.В., Жохова Н.С., Макеева И.М. Рабочая длина зуба и методы ее определения // Клин. стоматол. – 1998. – №2. – С. 8-11.
10. Боровский Е.В., Протасов М.Ю.Распространенность осложнений кариеса и эффективность эндодонтического лечения // Клин.стоматол. – 1998. – №3. – С. 4-7.
11. Боровский Е.В., Свистунова И.А., Кочергин В.Н. Да или нет резорцинформалиновому методу // Клин. стоматол. – 1997.– №3. – С. 16-18.
12. Де Пабло О.В. Исследования анатомии корневых каналов первых моляров нижней челюсти у населения Испании с помощью компьютерной томографии // Dent. Tribune. – Rus. Ed. – 2011. – Vol. 10, №6.13. Зазулевская Л.Я. Проблемы терапевтической стоматологии. Кто виноват, и что делать? // Казахстанский стоматол. журн. – 2005. – №1. – С. 8-11.
14. Захарова Е.Л. Сравнительное исследование эффективности витальной и девитальной пульпэктомии: Автореф. дис. ... канд.мед. наук. – Тверь, 2006.
15. Максимова О.П. Повторное эндодонтическое лечение – реальность сегодняшней стоматологической практики //Клин. стоматол. – 2005. – №2. – С. 20-24.
16. Максимова О.П., Петлев С.А.Клинические размышления о биологических основах и путях развития эндодонтии сегодня // Казахстанский стоматол. журн. – 2005. – №1. – С. 12-16.
17. Максимовский Ю.М. Как оценить успех или неудачу в планируемом эндодонтическом
лечении // Клин. стоматол. – 1997. – №3. – С. 4-7.
18. Мхитарян А.К., Агранович Н.В.,Кузнецова О.В. и др. Распространенность основных стоматологических заболеваний среди трудоспособного и пожилого населения
Ставропольского края // Соврем. пробл. науки и образования. – 2015. – №1. – С. 1-8.19. Петрикас
А.Ж., Захарова Е.Л.,Ольховская Е.Б. и др. Распространенность осложнений кариеса зубов // Стоматология. – 2014. – №1 (93). – С. 19-20.
20. Попова И.И., Боровский Е.В.,Мылзенова Л.Ю. и др. Рентгенологический контроль на этапах эндодонтического лечения // Клин. стоматол. – 2002. – №1. – С. 36-39.

21. Сандакова Д.Ц. Анализ распространенности, качества лечения и исходов осложненного кариеса зубов как основа программы профилактики в стоматологии: Дис.… канд. мед. наук. – Иркурск, 004. – 114 с.22. Сантарканжело Ф. Ирригация в современной эндодонтии: от стандартных алгоритмов до сложных случаев // Dental Times. – 011. – Vol. 3, №10. – P. 1-3l.
23. Нсенгиюмова Ф. Проблемы и трудности при повторном эндодонтическом лечении // Пробл. стоматол. –2011. – №1-2 (51-52). – С. 50-53.
24. 32. Рабухина Н.А., Григорьянц Л.А., Бадалян В.А. Роль рентгенологического исследования при эндодонтическом и хирургическом лечении зубов // Новое в стоматологии. – 2001. – №6 (96). – С. 39-41.
25. Blomlof L.B. Relation ship between periapical and periodontal status // J. Clin. Periodontal.– 1993. – Vol. 20. – P. 117-123.
26. Bystrom A., Claesson R., Sundgvist G. The antibacterial effect of camphorated paramonochlorophenol, camphorated phenoland calcium hydroxide in the treatment of infected root canals // EndoDent Traumatol. – 1985. – Vol. 1. – P.170-175.
27. Bystrom A., Happonen R.P., Sjogren U.et al. Healing of periapical lesions of pulses teeth after endodontic treatment with controlled asepsis // EndoDent. Traumatol. – 1987. – Vol. 3. – P. 58-63.
28. Gutmann J.L., Lovdabl P.E. Problem
29. Николаев, А. И., Цепов Л.М Практическая терапевтическая стоматология. — 3-е изд. — М.: МЕДпресс-информ, 2004. — 548 с.
30. Николайчук, В. В.,Терехов А. Б., Нэстасе К. И. Эндодонтия. Практическое пособие. — 1-е изд. — М.: VECTOR, 200

# Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari nashrlarining tafovutlari va o'xshash jihatlari

Gulrux Nazarova,
Buxoro davlat universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo'nalishi 2-bosqich magistranti,
Romitan tumani 18-maktabning
ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchisi

**Annostatsiya:** Maqolada Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat" asarining 1991-1992-yillardagi nashrlari aro farqli jihatlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Hikmat, qo'lyozma, nashr, yangi topilgan hikmatlar, nusxa.

Mustaqillik yillaridan buyon har bir sohada ma'lum bir o'zgarish, tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, ma'naviy merosimiz hisoblangan, badiiy qimmati oltinga teng asarlar yana dunyo yuzini ko'rdi. Shunday sara asarlar sirasiga kiruvchi "Devoni hikmat" asari ham 1991-1992-yillarda ketma-ket nashrdan chiqdi. Har ikkala yilda chop etilgan asarlar inson ma'naviy dunyosining kamolotida muhim vosita hisoblanadi. Quyida asarning nashrlar aro farqli belgilariga e'tibor qaratdik. Mazkur tafovutlarni va o'xshash jihatlarini shartli ravishda jadvalda aks ettiramiz.

"Devoni hikmat" asarining 1991-1992-yillarda chop etilgan nashrlari aro farqli tomonlari

| T/R | 1991-yilda chop etilgan "Devoni hikmat" asari | 1992-yilda chop etilgan "Devoni hikmat" asari |
|---|---|---|
| 1. | Asar 256 sahifadan iborat. | Asar 208 sahifadan iborat. |
| 2. | Nashrga tayyorlovchi I. Haqqulov | Nashrga tayyorlovchi O. Sohibnazarov |
| 3. | 5-betdan 40-betga qadar I. Haqqulov tomonidan so'zboshi yozilgan. | 3-betdan 6-betga qadar Mahmud Hasaniy tomonidan so'zboshi yozilgan. |
| 4. | So'zboshidan keyin hikmatlarga tartib berilgan. | So'zboshidan so'ng 7-betdan 18-betga qadar "Faqrnoma" keltirilgan. 19-betdan hikmatlarga tartib berilgan. |

| | | |
|---|---|---|
| 5. | “Hikmat”larning ma’lum guruhlarga bo‘linishi rim raqamlarida berilgan. | “Hikmat”larning ma’lum guruhlarga bo‘linishi arab raqamlarida berilgan. |
| 6. | Hikmatlar 43 bo‘limdan iborat. | Hikmatlar 149 bo‘limdan iborat. |
| 7. | 47-bo‘limda “Hikoyati Me’roj” keltiriladi. | Hikoyati Me’roj” keltirilmagan. |
| 8. | Asar Izohlar qismi bilan tugaydi. | Asar Lug‘at qismi bilan tugaydi. |

“Devoni hikmat” asarining 1991-1992-yillarda chop etilgan nashrlari aro o‘xshash tomonlar

| T/R | 1991-yilda chop etilgan “Devoni hikmat” asari | 1992-yilda chop etilgan “Devoni hikmat” asari |
|---|---|---|
| 1. | G‘afur G‘ulom nomli nashriyotda chop etilgan. | G‘afur G‘ulom nomli nashriyotda chop etilgan. |
| 2. | “Bismilloh deb bayon aylay hikmat aytib” hikmati bilan boshlanadi. | “Bismilloh deb bayon aylay hikmat aytib” hikmati bilan boshlanadi. |
| 3. | Hikmatlar ma’lum guruhga bo‘lingan holda berilgan. | Hikmatlar ma’lum guruhga bo‘lingan holda berilgan. |
| 4. | Hikmatlardan so‘ng “Munojot” keltiriladi. | Hikmatlardan so‘ng “Munojot” keltiriladi. |
| 5. | Lug‘atlarda murakkab so‘zlar izohi berilgan. | Lug‘atlarda murakkab so‘zlar izohi berilgan. |
| 6. | Ramziy tasvirlar tushirilgan. | Ramziy tasvirlar tushirilgan. |

Bugungi kunga kelib ham o‘z badiiy qimmatini yo‘qotmagan “Devoni hikmat” asari olimlar e’tibor markazida. Xususan, 2004-yil “Movarounnahr” nashriyoti tomonidan hikmatlarning yangi topilgan namunalari “Devoni hikmat” (Yangi topilgan namunalar) nomi ostida Ibrohim Haqqulov so‘zboshisi bilan Nodirxon Hasan tomonidan chop etildi. Mazkur nasrdan so‘z boshidan so‘ng, 73 bo‘limdan iborat tarzda hikmatlar ketma-ketligi

o‘rin olgan. Asar so‘ngida yangi topilgan hikmatlar xususida fikr yuritilgan. Ma’lumki, “Devoni hikmat” asarining turli yillarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari mavjud. Yangi topilgan hikmatlarning ayrimlari bir nechta nusxalarda mavjud bo‘lsa, ba’zilari faqat bir nusxadan o‘rin olgan. Masalan, “Ishq dardini oshiqlarga tuhfa berdi”, “Alloh, Alloh, Subhonalloh, qayon ketay?”, “Orif uldir, haq amrini pos aylasa”, “Ishq tajalli qilsa kimning vujudinda”, “Keling, do‘stlar, pir xizmatin bayon aylay” deb boshlanadigan hikmatlar faqatgina Q nusxada”, ya’ni Qo‘qon adabiyot muzeyida saqlanayotgan 7069 raqamli qo‘lyozmada saqlanayotganligi haqidagi fikrlar keltiriladi kitob so‘ngida. Shuningdek, quyidagi hikmat turli nusxalarda turli xil qalamga olingani aytib o‘tiladi. Jumladan, N nusxa, ya’ni Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmada:

“O‘n beshimda huru g‘ilmon qarshu keldi,

Boshin urib, qo‘l qovshurib ta’zim qildi.

Firdavs otlig‘ jannatidin muhzir qildi,

Diydor uchun barchasini ***qo‘ydim*** mano”[1]

shaklida uchrasa, A, J, D, Ye nusxalarida “***surdim***” shaklida uchraydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Piri Turkistonning axloqiy-ma’naviy, falsafiy va ma’rifiy mohiyatdagi fikr qarashlarini aks ettiruvchi bu hikmatlar ham xalqchil, sodda va ifodasi ravondir. Ularda inson botinini tuzatish, axloqini yuksaltirish, ilm ahliga ehtirom ko‘rsatish, Qur’oni karim va hadisi shariflarni mo‘tabar tutish, pir-u ustozlarga nisbatan hurmat bajo aylash, ayni vaqtda nodon va johillardan yiroq turish lozimligi alohida ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulatif Turdialiyev. Eshit Xoja Ahmad kalomi. //O‘zAs.
2. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent. Ma’naviyat. 1992.

[1]

3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi I.Haqqulov. Toshkent. Ma‘naviyat. 1991.

4. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchi R.Abdushukurov. Toshkent, 1992.

5. A.Bozorov, T.Qoraev. «Hikmatlar kulliyoti»dan. //Sharq yulduzi, 1992, 1-son, 3-19b; Yassaviy kim edi? (Maqolalar va hikmatlardan parchalar), to‘plab nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi B.Do‘stqoraev. Toshkent, 1994.

6. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1999.

7. Nazira G‘ulomova. Ona tili va adabiyot.// Sharq yulduzi. . Toshkent 2014.

TAFAKKUR MANZILI
2022-NOYABR/DEKABR
WWW.REANDPUB.UZ

# O'zbekistonda mahalliy boshqaruv va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarini demokratlashtirish

**Пулатов Хасанжон Иброхим угли**

**Сергели тумани иио фмб тергов булими катта суриштирувчиси капитан**

Annotatsiya: Maqolada "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini bosqichma-bosqich va izchil hayotga tatbiq etish asosida fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – insultni shakllantirish va rivojlantirish borasidagi O'zbekiston tajribasi bayon etilgan. Mahalla O'zbekistonda demokratiyani barpo etish, o'z faoliyati bilan fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalarini hal etish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashning muhim asoslaridan biridir.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning xususiyatlari, mahalla, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining roli, ta'lim, yosh avlod.

Fuqarolar yig'ini tashkilotlarining belgilari aholi punkti kabi umumiy tur kasb etadi. Dastlab odamlar bir-birining faoliyati qobiliyatlarini qo'shnichilik aloqalar orqali foydalanish uchun birga joylashadi, yakka holda zarur bo'lmaydigan umumiy maqsadga amal qiladi (ko'chaning joylashuvini, uyning shakli va hajmini, ixtisoslashuv tarkibi va boshqalarni nazarda tutgan holda). Urbanizatsiya rivojlanib borgan sari yaxlitlik faktori o'sib boradi va o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotadi hamda alohida ajralib chiqa boshlaydi. Shubhasiz, bu barcha tashkiliy shakllar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va o'zaro kesi-shadi. Umumiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratil-gan jamoaviy harakatlarni tashkil qilish uchun odamlar ierarxik tuzilishdan qochib qutula olmaydi. Birinchi-dan, ijtimoiy ierarxiya - bu "quyi" darajalar "yuqori" darajalar tomonidan boshqariladigan ijtimoiy tizim-larni (davlat, tashkilot, aholi punkti, oila) qurishning universal shaklidir. Daraja qancha «yuqori» bo'lgan sari, uning ijtmoiy tarkibi ham torayib, ierarxik tuzilish piramida shakl hosil qiladi.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi chuqur, dina-mik, tizimli o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Davlat, siy-osiy va iqtisodiy shakllar o'zgarmoqda, yangi ijtimoiy va ishlab chiqarish texnologiyalari joriy etilmoqda. Ushbu jarayonlarning barchasi murakkab uyushgan ijtimoiy tizimlarda menejmentning ahamiyatini sezi-larli darajada oshiradi. Dunyo ishchi kuchi va yalpi ish-chi kuchi tarkibida jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Endi menejerlar kam ma'lumotli itoatkor ijrochilar bilan emas, balki asosan mutaxassislar bilan duch kelish-moqda. Texnologik tuzilishga ko'ra, zamonaviy ishlab chiqarish malakali kasbiy ishlardan keng foydalanishni o'z ichiga oladi, shuning uchun zamonaviy menejerlar boshqaruv qarorlarini amalga oshirishga baho berishga va ijodiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan xodimlarni jalb qilishadi. Ishchilarning tarkibi ham o'zgargan: agar ilgari dehqonlar, ishchilar va xizmat ko'rsatuvchi xiz-matchilar ustunlik qilsalar, zamonaviy iqtisodiyotda

"menejerlar va mutaxassislar" asosiy professional guruhlarga aylanadi, qarama-qarshiliklar deyarli har qanday tashkilotning dinamikasini belgilaydi. Shaxsning rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi va fuqarolik kamolotiga erishuviga ham jamiyatdagi tarbiyaviy ishlar xizmat qiladi. Bu erda jiddiy ta'lim im-koniyatlariga ega bo'lgan mahallaning o'rni juda katta. Mahalla o'zini o'zi boshqarish tamoyillari asosida yashaydi, uning hayoti asosan tarixan shakllangan urf-odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, mahalla maqomi sezilarli darajada oshdi. Unga muhim qo'shim-cha vazifalar berilgan. Tarbiyaviy ishlarga, ayniqsa, yosh avlodga ko'proq e'tibor qaratildi. Mahalla qo'mitalari va faollarining sa'y-harakatlari bilan aniq yo'naltirilgan ta'limiy yo'naltirilgan turli xil tadbirlar o'tkazildi. «Mahalla tizimi jamiyatimizning eng muhim va tayanch bo'g'ini hisoblanadi. Oxirgi uch yilda uni rivojlantirish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, mahalla institutiga oid 38 ta qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, 50 dan ortig'i takomil-lashtirildi. Jamiyat hayotida jonbozlik ko'rsatgan soha xodimlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Fuqarolar yig'inlari raislari va mas'ul kotiblarining oy-lik ish haqi o'tgan yilning o'zida 1,5 barobarga oshirildi. So'nggi uch yilda 624 ta mahalla idorasi yangidan qurildi, 2 ming 265 tasi rekonstruktsiya qilindi va ta'mirlandi. 102 ta tuman va shahar markazida "Mahalla markazi" majmualari barpo etildi. Har bir fuqarolar yig'inida "Keksalar maslahati" guruhlari, 4 mingdan ziyod mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilindi. Mahalla faollarining mas'ul tashkilotlar va profil-aktika inspektorlari bilan hamkorligida oxirgi uch yilda 87 mingga yaqin kam ta'minlangan oila ehtiyojmandlik darajasidan chiqarildi». "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari" tamoyilini bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirishga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish, rivojlantirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti - mahallaning O'zbekiston tajribasi katta qiziqish uyg'otadi va undan demokratiya yo'lidan borayotgan mamlakatlarda samarali foydalanish mum-kin. Mahalla O'zbekistonda demokratiyani barpo etish-ning muhim asoslaridan biri bo'lib, uning faoliyati fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok et-ish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim vazifalarini hal etish bo'yicha konstitutsiya-viy huquqini ta'minlaydi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida fuqarolik institutlari bugungi kunda demokratik qadriyatlar, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Fuqarolik institutlari fuqarolarga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy, iqti-sodiy va huquqiy madaniyatni oshirish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini saqlashga sharoit yaratadi. I.Karimov ta'kidlaganidek: "Hayotimizning shunday bir alohida qismi borki, uni biron bir qonun yoki rasmiy hujjat bilan belgilab bo'lmaydi. Bu odamlarning ma'naviyati, mafkuraviy ongi va tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, odamlarning o'zaro munosabatlari, ularning oilasi, qo'shnisi, oilaviy munosabatlari - bularning barchasi o'ziga xos va sirli dunyo, juda ehtiyotkorlik va nozik yondashuvni talab qiladi. Bunday munosabatlarni rasmiy buyruqlar, qonunlar va farmonlar bilan belgilab bo'lmaydi. Sharqda islom falsafasida mahallalarda - odamlarda, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda mehri-bonlik va rahmdillik naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin» .

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma-halla institutini tiklash ishlari faollashdi. Uning dastlabki namoyon bo'lishi mamlakatning Bosh qomusi - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'ldi. Konstitutsiyaning 105-moddasida "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi" deyilgan. Ushbu qoida mahallaning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mahalla tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqimizning eng yaxshi fazilatlarini - yaxshi qo'shnichilik va o'zaro yordam, insonparvarlik va rahmdillik an'analarini tiklash va rivojlantirish bo'yicha aholi bilan faol ish olib bormoqda. U aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun haqiqiy markazga aylandi.

Har yili yosh oilalarning to'ylariga yordam berib, uy-joy sharoitlarini yaxshilaydi. Kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun bolalar oromgohlarida bepul dam olishiga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning bolalari hamda iqtidorli maktab o'quvchilari uchun respublikaning turli shaharlariga ek-skursiyalar uyushtirib kelmoqdalar. Fuqarolar yig'inlari hududlarida mingdan ortiq yangi maishiy xizmat ko'r-satish markazlari ochilib, ularda birnecha o'n minglab qo'shimcha ish o'rinlari yaratilib kelinmoqda. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish borasida doimiy ishlar olib borilmoqda. Mahalliy aholi uchun o'yin maydonchalari va dam olish maskanlari qurilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayonda muntazam hasharlar o'tkazishda tashabbus ko'rsa-tadigan fuqarolarning o'zlari katta rol o'ynaydi. Bu qudratli ma'naviy va birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladigan xalqimizning ajoyib urf-odatlaridan biridir. Xayrli ishlarning natijalari bugun yaqqol ko'rinib turi-bdi. Darhaqiqat, o'zbekistonliklarning sa'y-harakatlari bilan mahallalarda ko'plab mevali va manzarali darax-tlar va gullar ekilib, o'sib, fuqarolar yig'inlari obodonlashtirilgan ekologik zonaga aylantirildi.

Shunday qilib, mahalla fuqarolik jamiyatining yangi tipidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish or-gani sifatida uning fazilatlarini jonlantirish va tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mahalla siyosiy tizimning emas, balki fuqarolik o'zini o'zi boshqarishning instituti emasligi, siyosiy tizimda ishtirok etmasligi, balki u bilan o'zaro munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, № 9/1, 2012

2. Abdukamol Rahmonov. “Yuksak huquqiy madaniyat- demokratik jamiyat poydevori”. // Huquqshunos, 2019,№1. 8-9-b 415

3. Diyorova SHaxloxon. “Pedagogika oily o’quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari tog'risida” // Pedagogika,2019, №2 134-b.

TAFAKKUR MANZILI
2022-NOYABR/DEKABR
WWW.REANDPUB.UZ

# RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi**
**Toshkent moliya instituti katta ôqituvchisi**

**Annotatsiya**: maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi, raqamli iqtisodiyotga xos bo‘lgan texnologik o‘zgarishlar, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar**: raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik, dasturiy vositalar.

Jamiyat va undagi har bir shaxsning asosiy vazifasi cheklangan resurslardan maqsadga muvofiq foydalanishni ta’minlaydigan yo‘nalishlarni tanlash va maksimum natijalarga erishishdan iborat. Odatda, har bir shaxs o‘z manfaati yo‘lida, korxonalar — foyda miqdorini ko‘paytirish yo‘lida harakat qiladi, ayni vaqtda davlat ana shular faoliyatini yagona maqsad yo‘lida — jamiyatning farovonligini, kishilar turmush sharoitini yuksaltirishga qaratishi lozim.Jamiyatning ob’ektiv taraqqiyoti ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgarishiga olib keladi. Raqamli iqtisodiyot shakllanish jarayonida doimiy ravishda iqtisodiy va matematik modellashtirish, ijtimoiy psixologiya, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari kabilarning ta’sirida bo‘lib, o‘z navbatida ma’lumotlarni yig‘ish, qabul qilish, uzatish, qayta ishlash, saqlash maqsadida progressiv texnologiyalarning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shdi.

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu birinchi navbatda ijtimoiy ishlab chiqarishning jadal taraqqiyoti va sur’atlari, keng miqyosda axborot va telekommunikatsion texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt borasida erishilgan yutuqlarni tezda joriy etilishi bilan bog‘liq.

Ikkinchidan, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, mamlakatlarning import o‘rnini bosish mexanizmini ishga tushirishga harakatlari raqamli iqtisodiyotni yangilash va rivojlantirish jarayoniga o‘ziga xos talablar qo‘yadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning yuz berishida transaksion xarajatlar va bu xarajatlarda axborot xarajatlari alohida o‘rin tutadi. Raqamli iqtisodiyot bu xarajatlarni ham miqdor, o‘z navbatida ham sifat jihatdan o‘zgarishiga olib keldi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo‘ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bozor sub’ektlarining faoliyatida raqamli transformatsiyalarning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy isloh qilishning hozirgi bosqichida atrof-muhit jamiyatning institutsional tuzilishiga xos xususiyatlarini keltirib chiqarmoqda va bu asosda yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga zarurat tug‘diradi.

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya’ni, raqamlashtirish, ba’zan esa digitalization ya’ni raqamlashtirilishi ma’nosini bildiradi) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma’noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va assimilyasiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir.

Raqamli iqtisod, noyob funksiyaning ayrim xususiyatlarining mavjudligi sababli klassik iqtisodga xos bo‘lgan cheklovlarni yengishga imkon beradi:

1. Bir nechta odamlar moddiy mahsulotlardan foydalana olmaydilar, chunki raqamli mahsulotlarning bunday to‘siqlari yo‘q: nusxa ko‘chirish va cheksiz odamlar doirasiga taqsimlanishi mumkin.

2. Materiallardan foydalanish paytida foydalanish ta’qiqlanadi. Raqamli mahsulotlar asl xususiyatlarini yo‘qotmaydi, shuningdek, bu xususiyatlar birgalikda ishlash yoki almashinuv jarayonida yaxshilanishi mumkin.

3. Axborot-kommunikatsiya maydonchalari odatiy savdo binolarida mavjud bo‘lgan maydonlarning hajmiga cheklovlar va shu bilan birga bir vaqtning o‘zida xizmat ko‘rsatadigan mijozlarning soni va miqdori jihatidan cheklanishlarini oldini oladi.

Fikrimizcha, raqamli tizimlar uchun texnologiyalar va xizmatlar o‘z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

- axborot-kommunikatsiya tizimining rivojlangan tuzilmasi;
- ob’ektiv yo‘naltirilgan guruhlarda ishtirok etadigan interaktiv jamoalar;

- axborot resurslari;
- ma’lumot bazasi;
- elektron o‘zaro ta’sirlarning yangi shakllari;
- biznes, hukumat va jamiyatni integratsiyalashish uchun platforma;
- raqamli muhit.

Asosiy omillarni dasturiy ta’minotni faollashtirishga qaratilgan ommaviy axborotlashtirishni rivojlantirish, apparatni yangilash, tarmoq texnologiyalarini rivojlantirish, tranzaksion sektorning o‘sishi hisoblanadi. Shu bilan birga, raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirishning g‘oyalarini tarqatish, axborot bozori sifatida tavsiflangan ijtimoiy - iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi sohasida iste’molchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar o‘rtasidagi savdosi axborot mahsulotlari bozorini shakllantiradi. Ushbu yondashuv bir qator mamlakatlarda axborot industriyasining ustunligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi borgan sari bilimga asoslangan va innovatsion asosida rivojlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kalujskiy M.L. Marketingovыe seti v elektronnoy kommersii: institutsionalnыy podxod / M.L. Kalujskiy. – M.; Berlin: Direkt-Media, 2018. – 402 s.

2. Petrosyan A. Chto nujno znat o sifrovoy ekonomike i ee perspektivax- 2018. – 224 p. .

3. Svetkov V.A. Realizatsiya strategiy novoy industrializatsii ekonomiki / // Vestnik Finansovogo universiteta. – 2019. – T. 20. – №6 (96). – S. 19–30.

TAFAKKUR MANZILI
2022-NOYABR/DEKABR
WWW.REANDPUB.UZ

# MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO’LLASH VA UNING AHAMIYATI

**G'aniyeva Maftuna**
**Ilmiy rahbar: PhD Sh.Hasanov**
**Andijon davlat pedagogika instituti**
**Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi**
**( Maktabgacha ta’lim) yo'nalishi 2- bosqich magistranti**

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, bu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi.

Ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo‘shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, 2022-yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishdagi strategik vazifalar belgilab berildi.

Maktabgacha ta’lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta’lim pedagoglariga qo‘yiladigan talablarning qayta ko‘rib chiqilishi tom ma’noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik tomonlama rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini yangilash hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni amalga oshirishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim, bunda bolalarda vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni bolalarning yoshiga mos qilib tanlab olish bilan birga ulardan foydalanish, bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, shaxsiy gigienaga e'tiborini qaratish, o'z vaqtida kerakli vositalardan: sovun, salfetka, spirtli suyuqliklardan muntazam foydalanishga, faol o'yinlar o'tkazish, musobaqalar uyushtirish, gimnastikalar bajarish bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarni axloqiy, estetik, jismonan sog'lom o'sishiga zamin yaratish. STEAM an'anaviy o'qitishga muqobil yondashuv hisoblanadi. Bunda bolalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)ni fanlararo bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar

Ushbu maqsadlarni bajarish uchun 2016-yildan boshlab milliy ta'lim tizimida STEAM O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. "Zamonaviy maktablarni tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizi mini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori, "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori va boshqa ko'plab

respublikamizdagi ta’lim tizimini dunyodagi yetuk ta’lim tizimlariga teng lashtirish borasidagi islohotlarni ta’kidlab o‘tish mumkin.

Hozirgi kunda STEAM ta’lim tizimi dunyo miqyosida keng tan olinmoqda. Ba’zi mamlakatlarda ushbu ta’lim tizimi milliy ta’lim tizimi etib tayinlangan. 2016- yil natijasiga ko‘ra STEAM ta’lim tizimi bo‘yicha maktabni tamomlaganlar taqsimotiga ko‘ra yuqori texnologiyalar bo‘yicha jadal tarzda rivojlanib borayotgan Xitoy birinchi o‘rinni, AQSH va Rossiya munosib ravishda 3 va 4 o‘rinni egalladi.

STEAM ta’limi nima degani? STEAM so‘zi ingliz 4 so‘zning bosh harflaridan tashkil topgan abreviatura bo‘lib, unda: S-Science - Fan, T- Technology - Texnologiya, E-Engineering - Injinerlik, M – Mathematics – Matematika, yaqin kunlarda ushbu apreviaturaga A-Art -San’at bo‘limi ham qo‘shilgan.

STEAM tizimida ta’lim ushbu 4 y o‘nalishga urg‘u bergan holda, undan tashqari ularning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan holda olib boriladi. Globallashuv davridagi texnologik o‘zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun’iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta’lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda. STEAM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga kiritib beradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, STEAM ta’lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem- solving skills) qobiliyati shakllanadi. O‘zbekiston Respupblikasida STEAM ta’lim tizimini davlat ta’lim tizimiga kiritish bo‘yicha o‘tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o‘tkazish;

- maktabgacha ta’limning muqobil shakllari uchun yangi o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini keng joriy etish;

- tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o‘rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish; - rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalar ta’limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inkluziv ta’lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta’lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko‘maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

- maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang‘ich ta’lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

- mashg‘ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini optimallashtirish;

- bolalarni sog‘lom turmush tarzini yuritishga o‘rgatish, gimnastika va faol o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va sportga qiziqish uyg‘otishni shakllantirish, jismonan sog‘lom o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish; - bolaning kelgusida o‘zini o‘zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta’lim

xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish.

# JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALOVCHI BADIIY GIMNASTIKA MASHQLARINING TASNIFI

***Xolboyeva Maftuna Aziz qizi***
*Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazaryasi va metodikasi mutaxasisligi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Badiiy gimnastika jismoniy tarbiyada o`ta muhim ahamiyatga ega sport turi hisoblanadi. Ushbu maqolada bu sport turidagi mashqlarning o`ziga xosliklari bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** sport, badiiy gimnastika, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniysifatlar.

## KIRISH

Gimnastika – o’yinlar, sport turizm qatori u ham jismoniy tarbiya vositasidir. Asosiy vazifasi turli hayotiy faoliyat uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik berishdir. Bundan tashqari, o’zining gavdasini tuta bilish yoki tananing a’zolari harakatini boshqara olish, tanadagi jismoniy kamchiliklarni to’g’irlashdek maxsus vazifalarni ham hal qila oladi. Hozirgi kunda jahon halqlari gimnastika tizimini tanqidiy o’rganilib, keraksizlarini uloqtirib, foydali tomonini o’zida ilmiy mujassamlashtirilgan xolda jismoniy tarbiya sharoitida ijobiy foydalanilmoqda.

## ASOSIY QISM

Gimnastikada barcha jismoniy mashqlar qo’llanilishi mumkin. Aslida quyidagi mashqlar ko’rinishida qo’llaniladi.

a) saflanish va qayta saflanish mashqlari: bu mashqlar saflanishning ratsional yo’llari, gavdani to’g’ri tutish, komandalarga bo’ysunish, qaddi – qomatni roslash va boshqa vazifalarni hal qiladi;

b) asosiy jismoniy mashqlar: bu mashqlar tananing hamma qismlariga umumiy yoki ayrim ajratib olingan qismlarini rivojlantirishda qo’llaniladi, harakat malakalarining tez shakllanishi uchun qulay;

v) erkin mashqlar: bu nom orqali musiqa ostida bajariladigan harakatlar kombinatsiyasi tarzida tuzilgan mashqlar tushuniladi. Erkin mashqlar bilan shug'ullanuvchilarning harakatini kuzatsak, biz harakatlarni musiqa ritmi, tempiga tushayotganligini yoki uning nafosatli, go'zalligini ko'rib, inson harakatlari zaxirasining juda betakror ekanligini shoxidi bo'lasiz;

g) zaruriy hayotiy – amaliy mashqlar: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, yuk ko'tarish va boshqa qator mashqlar mavjud. Bular jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi asosiy vositalar sanaladi;

d) maxsus gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar: perekladinadi, brusyada, kon, yakkacho'pda va boshqalarda bajariladigan mashqlar. Ular kuch, chaqqonlik, bo'g'inlar harakatchanligi, muskullar elastikasi, ruhiy va boshqa sifatlarni tarbiyalaydi;

e) akrobatika mashqlar: qo'lda turish, yonbosh tomonga tanani bukmay aylanish, "randat", "flyag" va boshqa qator yakka juft, guruh bo'lib bajariladigan mashqlar kiradi.

Ular asosiy, zaruriy, hayotiy harakat va ko'nikmalarni tarbiyalaydi. Sport mahoratini oshirishda va umumjismoniy tayyorgarlik uchun etakchi vositadir; j) badiiy gimnastika: raqs tarzidagi, jismsiz, jismlar bilan bajariladigan mashqlar bo'lib, o'z ichiga yurish, sakrash, egiluvchanlik talab qiladigan qator mashqlarni oladi va ularni musiqa bilan qo'shib bajarish tushuniladi va u sportning alohida turidir. Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida shakli va mazmuni jihatidan sodda, quvnoq va tetiklashtiruvchi harakterga ega bo'lgan musiqalardan foylanish zarur. Bu o'rinda ommabop musiqiy asarlar, raqs va harakatlarga undovchi musiqiy ohanglar, valslar, sho'x kuy-qo'shiqlar, zamonaviy ommabop qo'shiqlar tavsiya etiladi. Mashg'ulot jarayoniga musiqiy ohanglarni kiritishdan avval tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni maqsadga muvofiq joylashtira olishi kerak. Bundan tashqari musiqani jarayonga kiritishi paytini oldindan belgilab olish zarur. Musiqani tinglab turib, har birimiz bir maromda takrorlanuvchi yoqimli zarbani sezamiz, bu musiqada metrik ohang deb yuritiladi. Metrik ohang musiqani taktlarga bo'ladi.

Badiiy gimnastikaga kiruvchi ko'pgina harakatlar klassik va xalq raqslari harakatlaridan kam farq qiladi.Biroq, badiiy gimnastika o'zining bir qator o'ziga xos elementlariga egaki, ularning bajarilish texnikasi xoreografik mashqlar texnikasidan tubdan farq qiladi. Bunday elementlarga prujinasimon harakatlar, «to'lqin» kabi mashqlar,

siltashlar, yurish va yugurishning ba’zi turlari hamda xoreografiyada qo’llaniladigan maxsus sakrashlarni kiritish lozim. Barcha ushbu elementlar erkin mashqlarda keng qo’llaniladi.

Prujinasimon harakatlar uchun harakatning birinchi bosqichida tanani bir necha yoki barcha bo’g’inlarida bukilishning hamda ikkinchi bosqichida yozilishning bir vaqtning o’zida bir tekisda ro’y berishi xosdir. Bukilish va egilish taranglik bilan bajariladi. Qo’llar bilan prujinasimon harakatlarni turli xil dastlabki holatlarda bajariladi. Qo’llar gavdaga nisbatan yo’nalishda barcha bo’g’imlarda (barmoqlarning birinchi falangasidan boshlab elkaga) taranglik bilan bukiladi. Qo’l panjasi yuqoriga bukiladi va yelka tomon harakatlanadi, tirsak pastga tushib, gavdaga taqaladi. Qo’llarni yozilishi bir vaqtning o’zida barcha bo’g’imlarda taranglik bilan sodir bo’ladi.

Dastlabki holat-qo’llar oldinga cho’zilgan.

1-2-qo’llarni bukish.

3-yozish.

4-pauza.

Dastlabki holat-qo’llar yon tomonga cho’zilgan.

Yuqoridagi harakatlar yana takrorlanadi. Qo’llar bilan bajariladigan prujinasimon harakatlar kuch va taranglik bilan ta’riflanib, turli vaziyatlarda bajariladi: qo’llar oldinda, yon tomonlarda, yuqorida va pastda. Qo’llarni, aynan dastlabki holat yo’nalishi bo’yicha, bilaklar va panjalarni burmagan holda bukish lozim.

Oyoqlar bilan prujinasimon harakatlar.Ikkala oyoq uchi va tizzalarni jipslashtirib, yarim barmoqlarda turgan holda bajariladi. Oyoqlarni yarim barmoqlardan tovonlarga tushirib, shu tariqa o’tirish kerakki, tos tovonlar ustida joylashishi lozim. Oyoqlarni yozib dastlabki holatga qaytiladi. Prujinasimon harakatlarni o’tirgan va yarim o’tirgan holatda turlicha maromda bajarish mumkin.

**XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, gimnastika mashg’ulotlari muntazam o’tkazilsa, uning ta’sirida to’qimalarda qon aylanish yaxshilanadi, arterial bosim pasayadi yurak qontomir sistemasining faoliyati yaxshilanadi, o’pkaning nafas olish sig’imi oshadi, modda almashinuvi yaxshilanadi, markaziy nerv sistemasi va nerv-muskul apparatining ruhiy

holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning tetikligini, o'z kuchiga bo'lgan ishonchini oshiradi va ruxlantiradi. Gimnastika mashqlari tizimi doimo rivojlanishda va o'sishdadir. Ilmiy tadqiqot ishlari va kuzatishlar ayrim mashqlarning qaytadan tuzilayotganligi, yangilanayotganligi, ayrimlari mustahkamlanayotganligi va takomillashayotganligini ko'rsatmoqda.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

**1.** Achilov A. Badiiy gimnastika. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010

**2.** Biryuk E.V., Ovchinnikova N.A. Хореографическая подготовка в спорте. Kiyev: KGIFK, 2010

**3.** Verbova Z.D. Искусство произвольных упражнений. . – M.: FIS, 2017.

**4.** Karpenko L.A. Методика составления произвольных комбинаций, формирования творческих умений и музыкально-двигательной подготовки в художественной гимнастике. Учебно-метод. пособие – SPb.: SPbGAFK, 2014.

**5.** Lisitskaya T.S. Художественная гимнастика. – Jismoniy tabiya institutlari uchun darslik. M.: FIS, 2012.

# Мулк ҳуқуқининг дахлсизлиги янада мустаҳкамланди.

**Учкудуқ туман**
**иқтисодий суди раиси**
**Д.М.Турдиев**

## Аннотация

Мазкур маколада юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳуқуқлари, шу жумладан мулк ҳуқуқи Конституция билан мустаҳкамланганлиги, мулкнинг давлат химоясидалиги ёритилган. Шунингдек, мақолада 24.08.2022 йилдаги “Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулкий муносабатларга асоссиз аралашувга йўл қўймаслик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-198-сон фармони қабул қилинганлиги муносабати билан юридик ва жисмоний шахсларнинг мулкий манфаатларини ҳимоя қилиш янада мустаҳкамланганлиги кўрсатилган.

**Калит сўзлар**: мулк, хусусий мулк, дахлсизлик, мулкдор, жисмоний шахс, юридик шахс, суд, давлат божи, ноқонуний, фармон.

**Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддасига** кўра хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир. Мулкдор фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибдагина мулкидан маҳрум этилиши мумкин.

Хабарингиз бор, жорий йилнинг 22 август куни Президентимиз Ш.М.Мирзиёев тадбиркорлар билан очиқ мулоқот ўтказиб, унда давлатимиз раҳбари томонидан мулкий ҳуқуқларнинг ишончли ҳимоясини яратиш, ушбу ҳуқуқларни чеклаётган омилларни бартараф этиш бўйича вазифалар белгиланди.

Очиқ мулоқот доирасида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулкий муносабатларга асоссиз аралашувга йўл қўймаслик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-198-сон фармони эълон қилинди.

Фармонга асосан қуйидаги тартиблар, талаблар ва чекловлар 2022 йил 1 сентябрдан бекор қилиниши қайд этилди:

**Ерга бўлган ҳуқуқлардан фойдаланишда:**

- ерга бўлган ҳуқуқнинг вужудга келишига асос бўлган ҳужжатларни бекор қилиш орқали ерга бўлган ҳуқуқни тугатиш, мазкур ҳужжатлар фақат суд томонидан бекор қилиниши ёки ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин;

- ердан ихтиёрий воз кечишни Ҳукумат ёки ҳокимлик қарорлари билан расмийлаштириш (ихтиёрий воз кечиш тўғрисида нотариал тасдиқланган ариза ҳуқуқни бекор қилиш учун асос бўлади);

- юридик шахс тугатилиши билан унинг ерига бўлган ҳуқуқларини бекор қилиш;

- ерни жамоат эҳтиёжлари учун олиб қўйишда компенсация сифатида давлатнинг бошқа кўчмас мулкини бериш, бунда кўп квартирали уйлардаги турар жой берилиши мумкин.

**Турар жойга бўлган мулкий ҳуқуқларни амалга оширишда:**

- турар жойга нисбатан мулкий ҳуқуқларга ёки турар жой мулкдори билан қариндошлик алоқаларига эга бўлмаганларни доимий рўйхатдан чиқариш учун уларнинг розилигини олиш;

- суд томонидан турар жойга нисбатан инсофли эгалловчи деб топилган жисмоний шахсдан ушбу турар жойни унга нисбатан мулк ҳуқуқи давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан бошлаб 3 йил ўтгач натура шаклида талаб қилиб олиш бекор қилинди.

Фармонда назарда тутилган муҳим бандлардан яна бири бу, мансабдор шахслар ва хизматчиларнинг қуйидаги ҳаракатлари хусусий мулк ҳуқуқини эркин амалга оширишга аралашиш ва дахлсизлигини бузиш деб ҳисобланиши ҳамда жиноий жавобгарликка тортишгача чоралар қўлланилиши белгиланди:

- мулкка эркин эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва тасарруф этишни чеклаш, тақиқ қўйиш, мулкий ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказишни асоссиз рад этиш, мулкдор ёки унинг мулкий ҳуқуқларига таъсир ўтказиш;

- мулкдорнинг хўжалик фаолиятига ёки мол-мулкдан фойдаланиш натижасида олинадиган ҳосил ва маҳсулотни реализация қилиш ҳамда даромадларни тасарруф этишга аралашиш;

- хусусий мулк объекти ва у жойлашган ҳудудга мулкдор рухсатисиз кириш;

- мол-мулкни бошқа шахсга ўтказиш, фойдаланишга бериш ёки тасарруф этишга аралашиш, бу тўғрисида ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиш;

- мулкдорга унинг ихтиёрига зид тарзда мол-мулки билан боғлиқ ижтимоий, иқтисодий ёки бошқа давлат ва жамоатчилик вазифаларини юклаш ёхуд номақбул шартларни қўйиш;

- мол-мулкдан мулкдорнинг розилигисиз ва тегишли ҳақ тўламасдан фойдаланиш;

- мол-мулкка эгалик қилиш ва ундан фойдаланишга оид маълумотларни сўраш ёки бундай маълумотларни мулкдорнинг рухсатисиз ишлатиш;

- мулк ва мулкий ҳуқуқлардан суд қарорисиз маҳрум этиш ёки мулкдорга улардан воз кечишга қаратилган мажбурлов чоралар қўллаш, тазйиқ ўтказиш ёхуд мол-мулкни тасарруф этишга доир асоссиз талабларни қўйиш.

Бундан ташқари, мол-мулкни ўзганинг ноқонуний эгалигидан талаб қилиб олиш тўғрисидаги даъволар бўйича давлат божи олинмаслиги, иқтисодий судларда мол-мулкка бўлган мулк ҳуқуқи тўғрисидаги даъволар юзасидан регрессив (даъво қиймати ошишига қараб давлат божи ставкаси пропорционал равишда тушиб боради) давлат божи ставкаларини қўллаш жорий этилиши қайд этилди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, мазкур Фармон қабул қилиниши билан мулк ҳуқуқининг дахлсизлиги янада мустаҳкамланиб, юридик ва жисмоний шахсларнинг мулкий манфаатларини ҳимоя қилиш кучайтирилди. Бу эса давлатимиз иқтисодиётини ва имиджини янада оширишга хизмат қилади.

# Немис тилида соматик фразеологизмларнинг лингвокогнитив тахлили

**Қахорова М.Т.**
**ЎзМУ, Лингвистика (немис тили)**
**2-курс магистранти**
**Илмий рахбар: проф. Имяминова Ш.С.**

**Аннотация:** Мазкур мақолада фразеологизмларнинг лингвокогнитив-семантикаси ва уларнинг лингвокултурология билан алоқадорлиги кўриб чиқилган. Уларга умумий хулосалар берилди.

**Калит сўзлар**: когнитив тилшунослик, когниция, канцептуализм, семантика, лингвокултурология, концепт

**Аннотация:** В данной статье рассматривается лингвокогнитивно-семантика соматических фразеологизмов и их связь с лингвокультурологией.

**Ключевые слова**: когнитивная лингвистика, познание, концептуализм, семантическа, лингвокультурология, концепт.

**Abstract:** This article examines the linguocognitive-semantics of somatic phraseologisms and their relationship with linguocultural studies.

**Keywords:** cognitive linguistics, cognition, conceptualism, semantic, linguoculturology, concept

Жаҳон тилшунослигининг структур-функционал босқичида асосий эътибор тилни тизимли ўрганишга қаратилди. XX аср охирига келиб тилни ундан фойдаланувчи шахс омили билан боғлиқ ҳолда ўрганувчи илмий парадигма – антропоцентризмга эътиборнинг кучайиши натижасида тилшуносликда ҳал қилиниши лозим бўлган қатор муаммолар юзага келди. Жумладан, тил бирликларини нутқий вазият, тил эгаларининг руҳияти, олам ҳақидаги билимлари, интеллектуал салоҳияти, ассоциатив тафаккури, миллий-маданий қарашлари каби экстралингвистик омиллар билан боғлиқ ҳолда ўрганиш ғояси марказий ўринга чиқди. Концептуал тузилма инсоннинг билиш тизимининг асосидир. Инсоният концептуализация жараёнисиз ўзини ва дунёни таний олмайди, концептуализация жараёни қобилиятнинг икки жиҳатини ўз ичига олади: бири мавҳум қобилият, иккинчиси еса тасаввур қобилияти. Концептуал тизимнинг ташқи кўриниши тилдир.

Консептнинг ўзига хос тузилиши бор, лекин консептнинг мавжудлиги ва ривожланиши тилнинг мавжудлиги ва ривожланиши билан чамбарчас алоқага эга.Ташқи дунё обйектлар ва уларнинг хусусиятлари сифатида намоён бўлади. Ташқи олам одамларнинг субйектив билишига боғлиқ эмас, лекин ташқи оламнинг тавсифи ва тавсифи одамларнинг тушунча тизимидан ажралмасдир. Одамлар ҳар доим ташқи оламдаги мавжудотларни тушуниш ва тан олиш учун ўзларига таниш бўлган тушунчалардан фойдаланадилар. Тилнинг шакли ва маъноси консептуал тузилиш орқали ташқи дунё билан хариталаш алоқасини ўрнатади. Билимлар тизими инсоннинг когнитив тажрибаси йиғиндисидир. Инсон билимлари тизими ташқи дунёни таснифлаш ва ташқи оламдаги мавжудотларни таниш, мавжудотларнингсифатларини таниш ва мавжудотлар ўртасидаги муносабатларни танишни ўз ичига олади. Когнитив лингвистика замонавий, илмий тадқиқотларнинг фаол ривожланаётган соҳасидир  Когнитив тилшунослик инсоннинг билиш қобилияти ҳақидаги фан – когнитологиянинг марказий соҳаларидан бири сифатида еътироф етилади. Когнитив атамаси инглиз тилидаги «cognitive – билишга оид» сўзидан олинган бўлиб, лотин тилига ва юнон тилига тақалади, билиш, англаш, тафаккур тушунчалари билан боғликдир. воқеликни билиш, идрок етиш, онг ва тилда акс еттириш, тил орқали мулоқотга кириш, ахборот узатиш ва қабул қилиш оддий ҳодиса емас. Когнитив тилшунослик фалсафадаги билиш назарияси билан чекланмай, балки тилни тафаккур билан боғлаб, унинг ҳосил бўлишидаги психологик, биологик ва нейрофизиологик жиҳатларнинг ижтимоий, маданий, лингвистик ҳодисалар билан узвий алоқасини чуқур илмий тадқиқ етади. Америкалик психолог Ҳ. Гарднер когнитив фанлар чорраҳасида олти фан соҳаси (фалсафа, психология, тилшунослик, антропология, суний интеллект, неврология) туташишини ва ягона бир илмий мақсад – табиий ва сунъий тизимларда билимнинг жамланиши, қайта ишланиши ва қўлланиши муаммолари йечимини излаш билан банд бўлишини қайд қилган еди [1].

Тилшуносликида яратилган бир қатор тадқиқотларда тилни когнитив тилшунослик нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш ҳақидаги илмий қарашлар концептуал таҳлил орқали кўрсатиб берилди. Тил бирликларини жумладан, соматик

фразеологизмларнинг когнитив механизмларнинг ўрни ва уларнинг тил бирликлари орқали вербаллашуви муаммосини ўрганиш ана шундай илмий қарашларни янада такомиллаштиришдан иборатдир. Тил эгалари томонидан олам манзарасининг турлича идрок қилиниши унинг тилда ҳам ўзига хос кўринишларда вербал ифода топишига олиб келади. Хусусан, соматик фразеологизмлар халқларининг олам манзарасини тасаввур қилиши, идрок этиш даражасини ўрганиш учун типологик умумийликни ва фарқни белгилашда муҳим аҳамиятга эга. Соматик фразеологизмлар инсон когницияси маҳсули сифатида тил эгаларининг олам ҳақидаги билимларини сақлаш ва узатиш воситаси бўлиб хизмат қилади. Соматик фразеологизмларнинг таркибида бир неча бирликнинг мавжудлиги уларнинг тилдаги тежамкорлик тамойилини ўзида мужассам этишини кўрсатади. Турли тилларга хос соматик фразеологизмларнинг когнитив асосини ўрганиш ташқи олам ва унинг вербал ифодаси, тил ва тафаккур муносабати масаласига ойдинлик киритишга ёрдам беради, шу билан бир қаторда, тилшуносликда соматик фразеологизмларни ўрганишга когнитив ёндашув муаммосини юзага чиқаради. Умуман тилшуносликда Соматик фразеологизмларнинг моҳияти юзасидан назарий қарашлар шаклланган. Бироқ Соматик фразеологизмларнинг концептуал хоссалари, уларнинг оламни лисоний акс эттиришдаги хусусиятлари муаммоси махсус планда тадқиқ этилмаган. Айниқса, бу муаммо немис тили мисолида ўрганилмаган. Фразеологизмларнинг семантик хусусиятларини ўрганиш орқали уларда фразеологик полесемия, фразеологик синонимия, фразеологик антонимия ва паронимия ҳодисалари борлиги аниқланган. Фразеологизмларнинг парадигматик ва синтагматик хусусиятлари уларда грамматик, морфологик, синтактик ва лексиксемантик воситалар қўлланилишини кўрсатади. Фразеологизмларнинг вариантланиши уларнинг компонентлари алмашиниши, қўлланилиши, тушуриб қолдирилиши трансфармация қилишга боғлиқ. Грамматик-морфологик структурасига кўра феъллик, равишлик, ундовлик ва ҳоказо фразеологизмлар фарқланади. Фразеологизмлар таркибига кирган сўз туркумлари баъзан ўзларининг мустақил маъноларини йўқотади. Ҳар қандай тилнинг фразеологик иборалари аввало стилистик восита сифатида маълум. Шунинг учун бўлса керак, тилда стилистик жилога эга, бир-бири билан синонимик муносабатда

учровчи иборалар жуда кўп. Ушбу фикрни исботлаш мақсадида қуйидаги бир структурага эга бўлган фразеологик синонимларни келтирамиз: den Mund halten S+V [2].

die Schnauze halten S+V

den Schnabel halten S+V

die Fresse halten S+V

den Rand halten S+V

die Klappe halten S+V

die Gusche halten S+V

die Pfeife halten. S+V

Келтирилган фразеологизмлар бир умумий маънога эга – «жим турмоқ». Лекин уларнинг барчалари бир-биридан стилистик планда фарқланади. Агар den Mund halten ибораси адабий тил доирасида бўлса, қолган синонимлар турли стилистик даражадаги фразеологик синонимлардир. Бу бирликларнинг хар бири тил ва онгнинг махсулидир. Mund сўзининг ўрнига бошқа сўзлар бўлса хам семантикаси бир хилдир. Бу хам тил эгалари томонидан олам манзарасининг турлича идрок қилиниши унинг тилда ҳам ўзига хос кўринишларда вербал ифода топишига олиб келади. Ёки jmdm. in die Hande fallen, jmdm. in die Klammen fallen – «қўлга тушмоқ» маъносидаги фразеологик иборалар ўз стилистик жилоси билан бир-биридан фарқ қилади. Структураси турлича бўлган гурух фразеологизмлар маъно ўхшашлиги туфайли синонимик муносабатда бўлади. Масалан, «ақли жойида эмас» маъносини ифодалаш учун немис тилида турли фразеологизмлар мавжуд:

Einen Vogel haben

Bei dem Piep’s wohl

Nicht alle Tassen im Schrank haben

Bei jmdms puckt es im Kopf

Немис тилидаги соматизмлар таркибидаги жуфт сўзлар ҳуқуқий хаёт доирасида юзага келган ва улар адабий-семантик жиҳатдан имо-ишораларни англатади. Жуфт сўзлар ёрдамида ясалган Stein und Bein schwören ибораси қасамёд қилаётган

кишининг Илоҳий шахснинг оёғини ҳамда Меҳроб тошини ушлаб туришига қиёсланган. Бу соматизмли фразеологизмни марфологик жиҳатдан таҳлил қилсак, S+S+V сўз туркумдан ясалганлигини кўрамиз.Инсон онгли равишда ушбу фразеологизмни йани когнитсияси орқали маносини тушинади. Таржимаси жиҳатдан бу структурага мос келмайди. Яъни маъноси жиҳатдан ўзбек тилида ҳам мос келмайди азиз-авлиёлар номи билан қасам ичмоқ маносида келади.

Hand auf Herz! ибораси ўрта асрлардаги қасамёд қилиш рамзи билан боғлиқ бўлиб, бунда юрак билан боғланиш учун ўнг қўл кўкракнинг чап томонига қўйилади. Ҳар бир мамлакатда маълум қоидалар мавжуд. Аммо бу қоидалардан ҳам муҳимроқ нарса у ёки бу халқ яшайдиган ва ёзма қоидаларга мос келиши шарт емас. Бу фразеологизим ҳам инсоннинг онгли равишда фикрлашга ундайди. Бунда инсоннинг ички кечинмалар яққол акс етади. Инсонда таффаккур қилиш жараёни орқали бази фаразеологизмлар концептуал фикрларни ифодалайди. Бу соматик фразеологизм ҳам жуфт сўздан ясалган бўлиб структураси S+S  шаклида бўлади.

Kopf und Kragen соматик фразеологизми ҳам S  шаклида ясалган. Бу жуфт сўзи ўрта асрлардаги хуқуқий соҳага оид бўлиб, ундаги Kragen сўзи „бўйин“ ёки „енса“ сўзларининг қадимги номланишидир. „Бўйин“ ва „бош“ қадимда қатл жараёнларида енг кўп қиличга дуч келадиган тана аъзолари ҳисобланганлиги боис ушбу иборада аск етган. Турли вариантларда  Kopf und Kragen ибораси ўрнида „Hals “ сўзи ҳам қўлланилиши мумкин. Немис халқ оғзаки ижоди ва еътиқодида seine Nase gefällt mir nicht  гапга тенг келадиган соматик фразеологизм ҳам бир инсоннинг ташқи кўринишидан унинг хулқ-атвори ҳамда ҳислатларини билиш мумкинлигни билдиради. Мақолга кўра гўёки бурунга қараб йигитнин қандайлигини билса бўлади. Параселсуснинг таъкидлайдики, қирра бурун қувноқ ва айёр одамларнинг, тўмтоқ бурун еса ёлғончи, баджаҳл ва нопок инсонларнинг рамзидир.

„ Hand und Fuß haben “S+S+V  иборасининг ясалишида инсоннинг физиологик ҳаракатдаги тўкислиги диққат марказида туради. Тананинг бу қисмлари ишга лаёқатли ҳамда маслашувчандир. Ўнг қўл ҳамда чап оёқдан ажралиш қадимда еркак кишининг умуман ишга яқоқсизлигини англатган, чунки у на қилич тута олган ва на отда юра олган. Шу сабабли жазонинг бу тури, кўпинча ўлим жазоси ўрнида

қўлланилган. 16 асрдан буён бу ибора мослашувчанлик маъносида қўлланилиб келинади.

Соматик фразеологизмлар инсон тана аъзоларининг рамзи ҳисобланади ҳамда кенг тарқалган анъаналардан гувоҳлик беради. Чоғиштирилаётган тилда муқобил вариантларига ега бўлмаган, тиллараро таққослашда кўп томонлама маданий тафовутларни юзага келтирадиган бир қатор маданий ўзига хосликларга ега соматик фразеологизмлар бор. Тил ва маданият хақидаги фразелогизмлар хам тил ва онг орқали ривожланади. Немис тилида тана аъзолари билан боғлиқ, халқнинг урф-одатлари ва анъаналарини ифодалайдиган кўплаб фразеологик бирликлар мавжуд: бош-кўзингдан садақа „ ein Almosen von deinem Kopf und Auge “, бошини иккита қилмоқ „der Mann heiratet “, бош омон бўлса дўппи топилади „ wenn der Kopf gesund ist, kann man die Mütze finden“, кўлини ҳалолламоқ „die Hand reinigen” Немис тилидаги соматик ибораларнинг келиб чиқиши ҳаётнинг турли соҳаларига бориб тақалади. Улар халқларнинг турмуш шароити, ўтган асрлардаги урф-одатлар ва ғоялар билан боғлиқ. Ҳар бир халқ ўз образи ҳамда образли ибораларини ўзига таниш бўлган ҳодисалар ва ҳаёт соҳаларидан, жумладан, табиат елементларидан, ҳайвонот ва наботот оламидан, иқтисодий ҳаётнинг қадимий шаклларидан, деҳқончилик, овчилик, балиқчилик, кемасозлик, савдо-сотиқ ва айрибошлаш ҳамда енг асосийси, инсонларнинг кундалик ҳаётдаги фаолиятларидан олади. Мисол қилиб оладиган бўлсак die Ohren spitzen, die Ohren hängen lassen, die Ohren steif halten oder den Kopf zwischen die Beine nehmen каби иборалар отларнинг табиий ҳаракатларидан (Чавандозлик), ), ein Haar in der Suppe finden, das Wasser läuft einem im Munde zusammen [3] фразеологик бирликлари еса озиқ-овқат ва ичимликлардан келиб чиққан. Seine Haut zu Markte tragen ибораси ҳунармандчилик соҳасига, einem die Haut über die Ohren ziehen, eine feine Nase haben овчилик соҳасига, Gewehr bei Fuß stehen ҳарбий соҳага, jmdm. sitzt der Schalk hinter den Ohren, blauen Montag machen, in den April schicken анъанавий халқ ҳоётига тегишлидир. Бундан ташқари мудаққас диний китобларда қуйидаги мисолларни учратиш мумкин: jmdm. sitzt der Schalk hinter den Ohren, blauen Montag machen, in den April schicken. Баъзи бир соматик фразеологик бирликлар савол ёки ундов шаклида ишлатилиши мумкин: масалан:

1. Herz, was begehrst/willst du mehr?
2. Kommt vom Herzen!
3. Hand aufs Herz!

Интонация одамларга ўз ҳис-туйғулари ва ҳис-туйғуларини янада ихчам ва кучли ифодалашга ёрдам беради. Сифатдош фразеологизмларга негативлик беради [4].

Хулоса ўрнида шуни такидлаш мумкинки, Соматик фразеологик бирликлар ҳаётий воқеалар билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлган ва давр ўтиши билан ескириб, истеъмолдан чиқади. Ескирган фразеологик бирликлар еса тасвирланаётган давр руҳини бериш, персонажлар нутқини индивидуаллаштиришда ишлатилади. Соматик фразеологик бирликлар лексик-семантик, грамматик ҳамда емоционалекспрессивлик хусусиятларига ега. Улар касб-корнинг ўзига хос хусусиятларини мужассамлаштиради ва образлилик яратади. Соматик фразеологик бирликлар бадиий асарларнинг таъсирчанлигини оширишда, уларда миллий менталитетни шакллантиришга хос хусусиятлар ифодаланган бўлади. Олам манзараси – бу субъектнинг атроф-олам, реал ёки хаёлий воқеликка оид билим ва фикр-мулоҳазалари мажмуасидир. Илмий тасниф ва талқинлар негизида мужассам бўлган дунё-борлиқ-олам тўғрисидаги дастлабки билимлар айнан тилда турғун шакллар кўринишида сақланиб қолган. Кузатувларимизга кўра, тилшуносликда асосан оламнинг лисоний ва концептуал манзарасига оид масалаларда тадқиқотлар олиб борилган.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Buschuy A.M. Jachschijew A.A. Phraseologische Konzeption von Prof. M.Umarchodshajew. In: Grundlagen der allgemeinen und deutschen Phrseologie. Samarkand, 2003,

Бинович Л. Э. Немецко-русский фразеологический словарь. М.: Аквариум, 1995.

Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов, 2001

Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси.-Т.: <Mumtoz so'z> 2011.

# РЕСПУБЛИКАНИ ТОҒЛИ ВА ТОҒОЛДИ ТУМАНЛАРДАН ЎТГАН ТЕМИР ЙЎЛ ЛИНИЯЛАРИНИ ВА ОБЪЕКТЛАРИНИ СЕЛЛАР ВА СУВ ТОШҚИНЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ.

**Хамидов Алишер Савриддинович** Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институтини «Меҳнат муҳофазаси ва Экология кафедраси» катта ўқитувчиси

***Аннотация***

*Бугинги кунда мамлакатимизда табиий хусусиятли фавқулодда вазиятлар кўлами йилдан-йилга ортиб бориши, айниқса сел ва сув тошқини юзага келиши тобора кучайиб бормоқда. Сел ва сув тошқинини олдини олиш мамлакатимизнинг сиёсий устувор йўналишларидан биридир. Халқаро амалиётда сел ва сув тошқинларини олдини олишга қаратилган тадбирларни ўз вақтида ўтказиш, аҳолини фавқулодда вазиялардан муҳофаза қилишнинг энг самарали усулларидан биридир. Аҳолини сел ва сув тошқинларида ҳаракат қилишга тайёрлаш ҳамда фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича илмий услублубларини ишлаб чиқилмаганлиги бугинги кунда муаммоли масалалардан биридир. Демак, аҳолини сел ва сув тошқинларида ҳаракат қилишга тайёрлаш ҳамда муҳофаза қилиш бўйича илмий услуб механизмларини яратиш мамлакатимиз ва хориж мамалакатлари учун ҳам*

***Калит сўзлар***: сел, аҳоли, комиссия, фавқулодда вазият, сув тошқини, иқлим, ва бошқалар.

Илмий-техника тараққиёт, мураккаб ва мукаммал технологик жараён нечоғли жадал суръатлар билан ривожланмасин ҳамон “Коинот-Ер-Инсон- Жамият” ўртасидаги узвий боғлиқликларнинг баъзи тугунлари ҳали ҳамон ўз ечимини тополмай қолмокда. Мана шундай муаммолардан бири сел оқими ва сув тошқини офатларидир. Кейинги вақтларда сайёрамизнинг турли бурчакларида содир булаётган воқеаларни умумлаштириб таҳлил қилсак, сел оқими ва сув тошқини офатлар йилдан-йилга ортиб бориб, кенг майдонларни қамраб олаётганлигига яна бир бор амин бўламиз. Кўпгина давлатларда олиб борилаётган изланишлар шуни кўрсатмокдаки, юзага келиши мумкин бўлган ҳодисаларни олдиндан ўрганиш, башоратлаш, унинг негизида огоҳлантириш чора-тадбирларини ишлаб чикариш, нафакат нохуш вазиятлар келтирадиган иқтисодий зарарни тежаб қолишга, балки инсонлар ўртасидаги шикастланиш кўрсаткичларини пасайтиришгаолиб келади[1].

Бу эса ўз навбатида мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигига бевосита зиён етказади. Яъни, сел тошқинлари юз берадиган туманларда экологик ва иқтисодий шароит сезиларли даражада ёмонлашиб, кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради. Охир-оқибатда бу маҳаллий ҳудудларнинг социал иқлимига салбий таъсир этмасдан қолмайди. Ўз навбатида тоғли ҳудудларда пайдо бўлган сел тошқини аста-секин водийга ҳам ёйилади. Гап шундаки, сел тошқини туфайли қисқа муддатда тоғдан катта шиддатли оқим келадики, узоқ давом этадиган қурғоқчилик шароитда ундан

экинларни суғоришда фойдаланишнинг асло имкони бўлмайди. Бундан ташқари, селнинг лой қўйқаси сувомбораларига тушиб, дарё ва ариқларни лойқа билан тўлдиради, сув юришини қийинлаштириб, уларнинг муддатидан олдин яроқсиз ҳолга келишига олиб келади[1].

Бироқ бу ҳали селдан келадиган энг муҳим зарар эмас. Ўзбекистон - агариндустриал мамлакат. Мева-чева маҳсулотларини кўпроқ суғориладиган ерлардан оладики, бизнинг шароитимизда суғормасдан деҳқончилик қилишнинг деярли имконияти йўқ. Айни пайтда, оқар сувнинг 9% гина бизнинг мамлакатимиз ҳудудига тўғри келади. Қолган фоиз эса қўшни мамлакатлар - асосан, Тожикистон ва Қирғизистондан оқиб келади. Қўшни мамлакатлардан келадиган сув оқимини назорат қилолмаслигимиз кундек равшан. Шунинг билан бир вақтда, иқлим шароитининг ўзгариши бизни янада кўпроқ аридизацияга олиб келади, яъни, асосан ерларни суғориш, айни пайтда аҳоли ва ишлаб чиқариш корхоналари учун зарур бўлган чучук сувга бўлган эҳтиёж янада ортади. Шунинг учун биз мамлакатимиз ҳудудларида юзага келадиган оқар сувга эҳтиёж ошиб бориши билан бир вақтда унга янада тежамкор муносабатда бўлишимиз ҳам зарур. Сел тошқинларида исроф бўлган сувни эса қишлоқ хўжалигига етказилган зарар сифатида баҳолаш мумкин. Сел юзага келишининг асосий сабабларидан бири тўпроқнинг ҳосилдорлик қатламидан айрилиб, дов-дарахт ҳамда ўсимликлар ўсмайдиган тап-тақир ерга айланиб қолишидир[3].

Ўрта Осиёнинг тоғли ва тоғ олди ҳудудларидаги бир пайтлар ўсимликларга бой майдонлар фрагментация, деградация ҳамда турли қўшилишларга учраб анчайин қисқариб кетди. Мамлакатнинг ўрмонли ҳудудлари текширув натижаларига кўра бугунги кунда 1,5–2 % ташкил этади[2].

Селнинг юзага келишига бошқа, одамнинг ўйламай қилган ҳаракатлари (ер ҳайдаш, йўл солиш ва ҳоказо) ҳам сабабчи бўлиши мумкин. Тоғ ёнбағирларидаги ўт-ўлан қатламини сақлаб қолиш чоралари кўрилмаса кейинги гал келган сел жарлик ҳосил қилиб, унинг олдини олишни янада қийинлаштиради. Иқлимий ўзгаришлар орасида кўпроқ қўйидаги ҳолат тахмин этилади: ёғингарчилик кунларнинг сони кўпайиб, уларнинг ўзгариб туриши ортади, бу эса сел ҳосил бўлишга ва тўпроқнинг юза қатлами ювилиб кетишга олиб келади; қўрғоқчилик келиши ортиб, қуруқ иссиқ давр муддати чўзилади, бу эса ёғин-сочин бўлишини камайтириб, ўт-ўланлларнинг тикланишини қийинлаштиради. Селни баратараф этишдан кўра, унинг олдини олиш арзонроқ тушади. Бунинг устига унинг олдини олиш чоралари сезиларли даромад олиб келиши мумкин. Ўт-ўлан қатламини сақлаб қолиб ва қайта тиклабгина селнинг олдини олса бўлади [5].

Дунё ҳамда мамлакатимизнинг ўрмончилик тажрибаси шуни кўрсатадики, тоғ қияликларида ўрмон қатламини сақлаб қолиш, ўрмончиликни ташкил этиш тоғ ландшафтларини мўътадиллаштиришнинг, жумладан, сел тошқинларини камайтириб

ҳатто уни бартараф этишнинг энг муҳим факторлардан бири ҳисобланади: ўрмон ўсимликлари билан қопланган қияликларда дарахт шох-шабалари чириндисининг ўзи ёғинларнинг маълум бир қисмини тутиб қолади ва сувнинг кўпайиб, тошқин ҳосил бўлишига йўл бермайди. Япроқ, игнабарг ва бошқа ўсимлик новдаларининг тўкилишидан  ҳосил бўлган чиринди туфайли ўзига хос тўшама – ўсимликлар чириндисидан иборат тўпроқнинг юза қатлами намликни сўриб олувчи энг қулай омил ҳисобланади.

Агар муаммо ечимига тизимли ёндошадиган бўлсак, сув ҳавзаларини назорат қилиш бир-бирига боғлиқ узвийликни ташкил топмоғи даркор:

a) сел ҳатари кучли тоғ қияликларида ўрмон ўсимликларини ўтқазиш;

b) яйловлар назоратини қўлга олиш;

c) социал ҳимоя чораларини қўллаш;

d) ёрдамчи инфратузилмаларни ташкил этиш;

e) дарё узани бўйлаб селга қарши муҳандислик қурилмаларини қуриш [4].

Аҳолини сел ва сув тошқинларидан муҳофаза қилиш бўйича мамлакатимизда хукумат комиссияси фаолият олиб боради. Тошқинга қарши кураш комиссиясининг фаолияти, вазифаси  ва мажбурияти Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил  19 февралдаги “Тошқинлар, сел оқимлари, қор кўчиш ва ер кўчиш ҳодисалари билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда уларнинг оқибатларини тугатиш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги 585-сонли қарорида белгилаб берилган [3].

Тошқинга қарши курашиш комиссияси хавфли гидрометеорологик  ва геологик жараёнлар билан боғлиқ фавқулодда вазиятлар олдини олиш  ва бартараф этиш ҳокимликларга ва бошқарув органларига таклифлар, режалар ва қор кўчкиси таҳдидини камайтириш, тошқин сувлари ва сел оқимларини хавсиз ўтказиб юбориш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқади ҳамда амалга оширишда бошчилик қилади. Тошқинга қарши курашиши комиссияси тошқинлар, сел оқимлари, қор кўчиш ва ер кўчки ҳодисалари билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан аҳоли  ва ҳудудларни муҳофаза қилиш мақсадида ташкил этилади.

Расм 1.




*Расм 1. Кучли сел келишини темир йўл иншоотига таъсири хавфли бўлган участкалар. Химоя воситалари.*

Юқоридагиларни ўрганиш асносида қуйидагиларни таклиф сифатида бераман: биринчи, ҳудудий тошқинга қарши курашиш комиссиялари сел ва сув тошқини хавфи юқори бўлган аҳоли яшайдиган пунктларда ижтимоий соҳага доир муассасалар ва маҳаллий ўзини-ўзи бошқарув органларида сув тошқинлари билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларда ҳаракат қилиш бўйича семинарлар, учрашувлар ва давра суҳбатлари ўтказилишини янада ривожлантириш; иккинчи, йилнинг сел ва сув тошқини юзага келиши мумкин бўлган мавсумида,ОАВ орқали аҳолини сел ва сув тошқини билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ва огоҳлантириш юзасидан тайёрланган видое ролик, реклама ва тақдимотларни телевидениядаги барча каналларга эфирга узатишни йўлга қўйиш; учинчи, сел ва сув тошқинларидан аҳолини муҳофаза қилиш бўйича илмий журналлар, услубий қўлланмалар ва адабиётларда янада кенгроқ ёритиб боришни йўлга қўйиш. Расм 2.




*Расм 2. Кучли селлар талафотларидан темир йўлни асраш. Кучли селни темир йўлга таъстири.*

Ўзбекистон атмосфера жараёнлари билан мураккаб ўзаро алоқада бўлган турли хил релефлар, ландшафтлар, тупроқ ва ўсимлик қопламаларининг кўплиги туфайли хавфли табиий ҳодисалар юзага келиши хавфига мойил. Бундай ҳодисалар сув тошқини, кўчкилар, қор кўчкилари, қурғоқчилик, кучли шамоллар, иссиқлик тўлқинларини ў'з ичига олади. Бироқ, энг кўп такрорланадиган қишлоқлар ва сел тошқинлари. Улар табиий ресурслар ва халқ хо'жалигининг турли об'ектларига этказилган катта зарарга олиб келади. O'згидрометнинг этакчи мутахассиси — дурадгорлик ю.А билан суҳбатлашдик.

Қишлоқ ва сел тошқинлари мамлакатга катта зарар этказади. Асосий зарар нима ва нима учун йиллар давомида улар ко'пайиб бормоқда?

- Тоғ ва тоғолди қишлоқ хо'жалигини жадал ривожлантириш, энергетика, тоғ - кон саноатини кенг ривожлантириш, ирригатсия иншоотлари, транспорт магистраллари ва спорт-соғломлаштириш мажмуаларини қуриш тоғларга кўплаб одамларни ва моддий-техник воситаларни жалб этмоқда. Шундай қилиб, турли хил иқтисодий ва турар-жой об'ектлари қишлоқ хо'жалиги хавф зонасига киради: қишлоқларнинг қисмлари, алоҳида уйлар, дам олиш масканлари, йўллар, кўприклар, чорвачилик фермалари, суғориш каналлари, қишлоқ хо'жалиги майдонлари ва томорқалар, саноат корхоналари, сув ҳавзалари, дисклар ва бошқалар. учинчидан, экологик вазиятни бузиш.

Умуман олганда, республика бўйича қишлоқ аҳолисининг 61% и моддий ва ижтимоий зарарга олиб келади. Шу билан бирга, 17% ҳолларда улар инсон қурбонлари билан бирга келади.

Қишлоқларнинг пайдо бо'лиши ва мамлакат иқлими ўртасида қандай алоқалар мавжуд?

- Тоғларда сел хавфи асосан муайян ойларда мавжуд ва бўронли фаолият даврлари билан боғлиқ. Сўнгги йилларда иқлим ўзгарувчанлигининг баҳор ойларида қишлоқларни тақсимлашга таъсири сезиларли даражада ошди. Шундай қилиб, сел-сув оқимларининг ўтиши вақт ўтиши билан чўзилади ва тепалик май ойига тўғри келади. Бу май ойида ёмг'ирнинг ошиши билан боғлиқ бўлиб, у ҳам тоғли ҳудудларда, ҳам ўрта тоғларда ва баландликларда. Афсуски, бу юқори ҳаво ҳароратининг жуда хавфли комбинатсиясига олиб келиши мумкин, бу эса кучли ёг'ингарчилик даврида қор ва музнинг тез эриши ва натижада айниқса ҳалокатли кучнинг селини шакллантиришга ёрдам беради.

Сел тошқинлари юзага келган вазиятни яхшилаш мақсадида Ўзбекистон ҳукумати томонидан қандай чоралар кўрилмоқда?

- Сел тошқинлари хавфи ва уларнинг юқори такрорланувчанлигини ҳисобга олган ҳолда, ҳукумат томонидан биринчи навбатда аҳоли ва ҳудудларни сел ва сел тошқинларидан ҳимоя қилиш чоралари ко'рилмоқда. Масалан, Ўзгидромет ФВВ билан биргаликда ҳар йили сел хавфи бўлган ҳудудларда жойлашган обектлар мониторингини олиб боради. Мониторинг натижаларига кўра, сел ва сел тошқинларидан ҳимоя қилишга муҳтож обектлар рўйхати тузилиб, ушбу обектларни

ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда. Кўп сонли уй хўжаликлари тўғридан-тўғри дарёлар ва вақтинчалик сув оқимларининг сув тошқинларида, яъни сел ва сел тошқинларининг таъсири энг ҳалокатли бўлган жойда жойлашган. Кўпинча бундай зоналарда бинолар рухсат этилмаган, масалан, Андижон вилоятида тўртта уй-жой тўғридан-тўғри омборхона косасида жойлашган бўлиб, фақат Ўзгидромет ходимлари ра томонидан бажарилган

Ўзбекистонда аҳоли учун сел хавфи муаммосини ҳал қилиш бў'йича ишнинг асосий йўналишлари қандай?

- Қуйидаги йўналишлар:

* Ҳудуд бўйича селлар кўламини баҳолаш;

* Замонавий хавф зоналарини аниқлаш (селеопасне ҳудудлари);

* Минтақадаги иқлим ва гидрологик вазиятларнинг о'згаришига, аҳоли о'сишининг динамикасига ва илгари яшамайдиган сел хавфи зоналарининг жойлашишига қараб, ушбу зоналарнинг динамикасини аниқлаш;

* Иқлим омилларига қараб (паст тоғлар учун – ёмғирга қараб, асосан суюқ, юқори тоғлар учун – асосан иссиқ мавсумда ҳаво ҳароратидаги ўзгаришларга қараб)сел ва селлоявления динамикасининг келиб чиқишини аниқлаш;

* Минтақадаги иқлим ўзгариши сабабли селнинг мумкин бўлган динамикасининг хусусиятлари;

* Селеактив ҳудудларда аҳолини мослаштириш бо'йича чора-тадбирларни аниқлаш.

Сел ҳодисалари муаммоси тоғ ва тоғ олди ҳудудларини кенг ўзлаштирган ҳудудлар учун энг долзарб экан, юқорида кўрсатилган йўналишларнинг ҳозирги ҳолатини Қашқадарё вилояти мисолида ко'риб чиқиш мумкин.

Қашқадарё вилоятига бутун республика бо'йлаб сел тошқинлари умумий сонининг 7% ини ташкил этади. 1900 йилдан 2012 йилгача Қашқадарё вилояти бо'йича 215 та сел ҳолатлари қайд этилган бо'лса, со'нгги 20 йил ичида сел тошқинлари деярли ҳар йили кузатилади.

Ўзгидромет прогнозларига кўра, Ўзбекистон қишлоқларни 2030-2050 йилга нисбатан 19-24 фоизга оширишни кутмоқда.

- *Селга чидамли тузилмаларни қуриш ва каналлар, кўприклар ва ҳ. к. ларнинг эркин ўтказилишини таъминлайдиган тадбирларни амалга ошириш.

* Аҳолини сел-сув тошқини хавфи мавжуд бо'лган жойларда о'зини қандай тутиш кераклигини о'ргатиш.

* Сел-сув тошқини хавфи ҳақида эрта огоҳлантириш тизимини ишлаб чиқиш.

* Ушбу ҳодисанинг табиати, уларнинг намоён бўлишининг табиати ва уларга этказилган зарарни минимал даражада камайтириш учун уларни ҳимоя қилиш учун зарур чора-тадбирлар тўғ'рисида аҳолининг турли қатламлари (ҳукуматдан қишлоқ аҳолисига) билимларни ривожлантириш.

Сел ва сел тошқинлари пайдо бўлишининг асосий табиий жараёнларининг ўта мураккаблигига қарамасдан, уларни бошқариш учун воситаларни ишлаб чиқиш

керак. Иқлимий хатарларни бошқариш усулларини ишлаб чиқиш, хавфли табиий ҳодисаларни мониторинг қилиш тизимини такомиллаштириш ва яқин келажакда прогнозлаш усуллари ва воситаларини (шу жумладан эрта огоҳлантириш тизимларини) ривожлантириш сел хавфини сезиларли даражада камайтиришга ва мамлакатимизнинг барқарор ривожланишига ёрдам беради.

**Хулоса ўрнида** шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, сел ва сув тошқинларини олдини олиш ҳамда ахолини бундай фавқулодда вазиятлардан мухофаза қилишнинг олдини олиш бўйича янада такомиллашган илмий асосларни ўйлаб топиш ва яратишдан иборат. Ахолини сел ва сув тошқини билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ҳамда юзага келадиган муаммоларни ҳал қилишни ривожланиши бўйича чуқур ўйлангани чоратадбирлар асосида илмий услубий қўлланмалар яратиш ҳамда ишлаб чиқиш зарурлигини ахолини ўқитишнинг янгича асосларини яратишимиз зарур.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. «Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қ илиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тошқинлар, сел оқимлари, қор кўчиши ва ер кўчки ҳодисалари билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда уларнинг оқибатларини тугатиш борасидаги чоратадбирлар тўғрисида» ги қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Техноген, табиий ва экологик тусдаги фавқулодда вазиятларнинг таснифи тўғрисида»ги қарори (№ 455, 27.10.1998).

4. Безопасность жизнедеятельности. Учебник/Под ред. Проф. Э.А. Арустамова. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательский Дом «Дашков и К0», 2001. – 678 с.

# BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA KITOBSEVARLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI YETISHTIRISH

*Umirbaeva Ulzada*

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini kitobsevarlikka o`rgatish, kitobsevarlik madaniyatini shakllantirish, ularni kitob o`qishga qiziqtirish texnologiyasi ko`rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik, "O'qish madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", mutolaa, internet, jurnal.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

"Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: "Mutolaa" madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir[2]. Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga

2 Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi.T. " O'qituvchi ".2012

kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi»[3]. Professor E.I.Yo'ldoshev «O'qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi»

Ta'lim o'qitish, o'qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta'lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o'quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta’minlaydi.

Ta'lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar faqatgina sinfda o'qitiladigan darslarda shakllanib kolmasdan, balki sinfdan tashkari, aniqrogi axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shugullanish orqali egallanadi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining o'quvchilar orasida targ'ib qilishdir. Buning eng samarali yo'llaridan biri bo'lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma'lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o'qish, eng muhimi, uni uqish, o'rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo'lish, ulardan foydalanishni o'rganish kabilar kiradi. Bu esa o'z-o'zidan amalga oshadigan, jo'n narsa emas, albatta[4].

O‘zbek oilasi bugun eski totalitar jamiyat mafkurasi singdirilgan kitoblardan voz kechmoqda. Yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan kitoblar tanlanmoqda. Bu jarayonda kitobxonlik pasayganday ko'rinsa ham, aslida u sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

---

3 Nishonov S. « Ta’lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta’limi, 2010 y.1-son, 12,16-b.
4 Tolipov O’. O’quvchilarni mustaqil ishlashda o’qitish vositalari. T., « Xalq ta’limi» 2000 y. №3.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari ma'naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida kitob o'qish ishtiyoqini shakllantirish nihoyatda murakkab jarayondir. Bu masala ularlarning kitobxonlikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, Boshlang’ich sinf o’quvchilarining bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo'lgan kitoblar tanlash qo'l keladi.

2. Kitob tanlashda bolaning ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo'lgan adabiyotlarni keng targ’ib qilish bolalarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo'lib etishishi uchun va ma'naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo'lishi kerak.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O‘qituvchi, ota-ona o'smirni kitobxonga aylantirib borishida uni ixtisoslashtirib borish yo'lini tutishi kerak. Bu borada eski texnologiya - bola yuqori sinfga o'tganda ixtisoslashtirish kerak, degan fikrdan voz kechish lozim.

Kitobxon - o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat,hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlari yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko'p fazilatlarni o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, ma’naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila

bilan hamohang, hamfikr ish yuritish ko‘zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**


1. Matchon Safo. Kitob o’qishni bilasizmi.T. “ O’qituvchi “.2012
2. Masharipova U. “Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash”. // Boshlang`ich ta'lim,2010, №4.
3. Nishonov S. « Ta’lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta’limi, 2010 y.1-son, 12,16-b.
4. Tolipov O’. O’quvchilarni mustaqil ishlashda o’qitish vositalari. T., « Xalq ta’limi» 2000 y. №3.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов//Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков //Инновационная деятельность вдошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.

# ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ - МАГИСТРАТУРА ТАЛАБАЛАРИНИНГ АҚЛИЙ КАМОЛОТИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА

**Усманова Умида Айбековни**
**Андижон давлат педагогика инстиути**
**Эркин изланувчи (DSc)**

